

## O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA "TARBIYA" FANINI O'QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8019294>

**Usmonova Nargiza Raximjonovna.**

*Muallif:Qo'qon universiteti "Ta'lim " kafedrasi o'qituvchisi*

### **Annotatsiya.**

*Ushbu maqolada o'smir yoshidagi o'quvchilarda "Tarbiya" fanini o'qitish orqali mustaqil fikrlashga o'rgatishga oid fikr mulohazalar keltirib o'tilgan.*

### **Kalit so'zlar.**

*O'smir, o'smirlik davri, tarbiya, tarbiya fani, tarbiya jarayoni, tarbiya konsepsiyasi, mustaqil fikrlash.*

Har qanday jamiyatning rivojlanishi mana shu jamiyatda yashab ta'lim-tarbiya olgan yoshlarning dunyoqarashiga, intellektual salohiyatiga, kreativ fikrlashiga har jihatdan bog'liqdir. Oila atalmish muqaddas dargohda farzand atalmish ne'mat tug'ilib voyaga yetar ekan mana shu nematning tarbiyasi jamiyatning asosiy ustunini tashkil etadi.Shuning uchun xalqimiz farzand tarbiyasi borasida bolaga ona qorniligidanoq tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish zarur ekanligini ta'kidlab o'tishadi.

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham tarbiya muammosi dolzarb muammolardan biri sanaladi. Tarbiya tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchida barqaror axloqiy hislat va xulqiy fazilatlarni tarkib toptirish, shakllantirish maqsadida tarbiyalanuvchining ongiga aniq maqsad yo'lida tarbiyaviy ta'sir etish jarayonidir.Tarbiya bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Umumiy o'рта ta'lim muaassasalarida "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari " hamda " Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fani 1-9 sinflarda-2020/2021 o'quv yilidan 10-11 sinflarda esa – 2020/2021 o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilsin.<sup>19</sup>

Mazkur qarorga muvofiq yurtimizda ta'lim jarayonlarida o'quvchi yoshlarga axloqning tub negizini tushuntirish orqali ularni mustaqil fikrlash hamda dunyoqarashlarini boyitib borish ishlari amaga oshirilmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki ta'lim va tarbiya jamiyatning asosiy negizini tashkil qiladi. Tarbiya-bolaning ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishi hamda insonning hayotiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishidir. Ta'lim jarayonining markazida shaxsning bilish va anglash jarayoni, uning qobiliyati, ilm o'rganishi yotsa undan farqli o'laroq tarbiya insonni shaxs sifatida shakllanishiga uning dunyoqarashi va jamiyatga munosabatiga qaratiladi. Tarbiya bu alohida jarayon emas, balki o'qitishning bir tomoni bo'lib u bilan umumiy va farq tomonlariga egadir. Bilim berish va tarbiyaga asosan insonning ijtimoiy-ko'nikma olish mexanizmining o'ziga xos jihatlarini kiritish mumkin. Tarbiya jarayonida shaxsning sifat va xossasi ijtimoiy xulq-atvori va shakllari nazarda tutilsa, o'qitishda bilim, ko'nikma va malakalar inobatga olinadi.

O'zbekiston Respublikasida "Tarbiya" fani konsepsiyasida mazkur fanni davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo'lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo'nalishlarni belgilab beradi. Umumiy o'рта ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani konsepsiyasida shiddat bilan ozgarayotgan dunyoda o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda ma'suliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik, ma'naviy, fuqoroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy kabi fazilatlarini shakllantirish kun tarkibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda.<sup>20</sup>

Zeroki tarbiyaning bosh vazifasi- jamiyat hayotida zarur bo'lgan kerakli sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Tarbiya jarayonida doimiy va o'zgarmas maqsad qo'yilmaydi, chunki o'zgarmas maqsad har qanday jamiyatga ham mos bo'lavermaydi. Jamiyat tuzilishi

<sup>19</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-4885018>

<sup>20</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-4885018>

va ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi bilan tarbiya maqsadi o'zgaradi. Tarbiya turli hil davrlarda va turli hil jamiyatlarda o'zgarimas jarayon bo'lib qolmaydi. Tarbiyaning maqsadlari, mazmuni shakl va metodlari har bir tarixiy davrda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Inson shaxsini shakllantirish bo'yicha har bir ijtimoiy tuzum yo'nalishiga mos ravishda talablar qo'yiladi. Tarbiyaning barcha tarixiy davrlar uchun xos bo'lgan ba'zi bir umumiy belgilari ham mavjud. Pedagogik go'yalar va tarbiyaviy ishni rivojlantirishda muayyan darajadagi aloqa va ma'lum bir davomiylilik mavjud. Jumladan asrlar davomida dars maktabda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning asosiy shakli bo'lib keldi va shunday bo'lib qolmoqda.

Pedagogik psixologik adabiyotlarda yosh davrlari haqida so'z yuritilar ekan bu borada Sharq va G'arb allomalari o'smirlik davri haqida, bu davr qiyinchiliklari, inqirozlari haqida ma'lumotlar qoldirishgan. O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlarga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy birmuncha untunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflarda boshlanadi. "Endi o'smir bola emas, biroq kata ham emas" ayni shu ta'rif o'smirlik davrining xarakterini bildiradi. O'smirlik- bolalikdan kattalikka o'tish bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taaluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Bo'yiga o'sish bir tekis bormaydi: qiz-bolalar 5-7 sm o'ssalar, o'g'il bolalar 5-10 sm o'sadilar. Bo'yiga qarab o'sish paysimon ilik suyaklarning uzunlashishi va umurtqa qismining kattalashishi hisobiga ro'y beradi. Og'iz bo'shlig'I va halqumdagi o'zgarishlar oqibatida tovush tembri ham o'zgaradi. Bu o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'proq darajada sodir bo'ladi. Og'il bolalarning tovushi vazminroq bo'lib qoladi, do'rillaydi. Fiziologik o'zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va o'sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashida namoyon bo'ladi. Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu davrda ayniqsa ayniqsa jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi. O'smirda ro'y beradigan biologik-jismoniy o'zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi sodir bo'ladi.

O'smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izoxlab bo'lmaydi. Jinsiy yetilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir. O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'quvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. O'smirlik davri " o'tish davri", "krizis davr", "qiyin davr" kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki bu yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O'z davrida buyuk rus psixologi L.S.Vigotskiy bunday holatni " psixik rivojlanishdagi inqiroz" deb nomlagan. Kichik maktab davridan so'ng bola alohida olingan shaxs sifatida o'z-o'ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o'smirlik yoshini ikki xil davrga - kichik o'smirlik davri va kata o'smirlik davrlariga to'g'ri keladi. Birinchi bosqichda o'smir o'zini " bola" lardan ajratib endi o'zini kattalar olamiga mansubligini ta'kidlamochi bo'ladi. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o'smirlarning asosiy xarakteristikalari hisoblanadi. Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o'zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo'lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog'liq bo'lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda o'smir endi o'zining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o'zligini aniq anglay boshlaydi, o'z shaxsini ulug'lab, o'ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O'smirlarni o'z shaxslari haqidagi fikrlar ko'proq qiziqtiradi, ular o'zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar.

O'rta umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish orqali o'smir yoshidagi o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko'maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shuning uchun "Tarbiya" fani bo'yicha o'quvchilarga sifatli bilim berish, ularni to'g'ri tarbiya yo'lga yo'naltirish, zarur bilim va hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lishlariga, mustaqil hayotga moslashishlariga ko'mak ko'rsatish, turli vaziyatlarda huquqiy, ma'naviy mezonlarga asoslangan holda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lmog'I lozim.

O'smirlik davrida, asosan bilish jarayonlari yuqori darajada rivojlanadi. Bu yillarda o'smirlar uchun hayot davomida kerak bo'ladigan asosiy shaxsiy va tadbirkorlik xususiyatlari ochiq ko'rina boshlaydi. Xotira, mexanik xotira darajasidan mantiqiy xotira darajasiga ko'tariladi. Nutq rivojlangan xilma-xil va boy tafakkur esa o'zining barcha ko'rinishlari : haraktli ,obrazli darajasida rivojlanadi. O'smirlarni endi turli amaliyot va aqliy faoliyatlarga o'rgatish mumkin bo'ladi. O'smirlik davrida juda ko'p ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar xos namoyon bo'la boshlaydi .Maktab dasturini o'zlashtirish va boshqa ishlar bilan bog'liq turli masalalarni yechishda ko'zga tashlanadigan o'smirlarning intellektual rivojlanganligi kattalarni ular bilan birga jiddiy muammolar bo'yicha fikrlashga undaydi , o'smirlarning o'zlari ham bunga harakat qiladilar.

O'rta umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish orqali o'smirlarda quyidagi sifatlar orqali mustaqil fikrlash jarayonlarini o'stirib boriladi :

O'quvchilarda aqliy va jismoniy imkoniyatlarini o'stirish orqali , milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yuksaltirish orqali ,ongli vatanparvarlik ruhini rivojlantirish orqali, o'quvchilarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish orqali, o'quvchilarga ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish hamda tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

O'smir yoshidagi o'quvchilarda " Tarbiya" fanini o'qitish orqali mustaqil fikrlashga o'rgatishda avvalo shaxsning rivojlanish davrlari va bu davrda o'quvchilarning psixofiziologik jihatdan rivojlanishi hamda bu davrda o'smir ongi va dunyoqarashidagi chuqur o'zgarishlarga e'tiborni qaratgan holda jarayonni olib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki, bu davrda o'smir har jihatdan mustaqillikka erishish uchun o'zini kattalardek tutishi hamda mustaqil qarorlar qabul qilishi va qabul qilingan qarorlari uni kelajakda mustaqil fikrlashga mustaqil fikrlash orqali shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratilishini anglab yetadi. O'smirlik davridagi mustaqil fikrlashga intilish va mustaqil fikrlashga o'rganish jarayonidagi o'sishlarni pedagoglar doimo nazoratda olib borishlari lozim. Bu orqali o'smirning o'z-o'zini anglashi va dunyoqarashini kegayishida amaliy yordam ko'rsatilingan bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.Darslik. Toshkent.:Sano Standart,2017-yil.

2 Ro'ziyeva .D.I Tolipov .O. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.Toshkent.: Innovatsiya-Ziyo. 2019-yil.

3 Yuzlikayeva E, Axmedova M, Qurbonova S, SH Tashmetova. Umumiy pedagogika.Darslik . Toshkent.TDPU,2012-yil.

4 Pedagogika .M Toxtaxodjayevning umumiy tahriri ostida .Darslik. Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati.2010-yil

5 O' Asqarova, M.Xayitboyev, M. Nishonov. Pedagogika . Darslik Toshkent " Talqin" 2008-yil.

6 Z.Nishonova . Rivojlanish va ta'lim psixologiyasi.Darslik. Toshkent.2019-yil.

7 <https://lex.uz/ru/docs/-4885018>